

Amaliy tadqiqotlar tanlovi mavzusi

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish fanlari” yo‘nalishi

Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
Intensiv usulda etishtiriladigan paxta maydonlarida dronlar yordamida agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tahliliy materiallar, xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish 	Tadqiqot shakli: Amaliy. Ilmiy tadqiqot natijalari: -intensiv usulda etishtiriladigan paxta maydonlarida dronlar orqali agrotexnik tadbirlarni amalga oshirishning ilmiy asoslangan modeli ishlab chiqiladi; -dronlar yordamida o‘g‘it va kimyoviy vositalarni differensial qo‘llash natijasida, resurs sarfi kamayishi (o‘g‘it va preparatlar tejalishi), o‘simlikka ta’sirning bir xil va aniq bo‘lishi va hosildorlikning barqaror o‘sishi ilmiy jihatdan isbotlanadi; -paxta maydonlarining fitosanitar holatini dron orqali monitoring qilishga doir analitik ma’lumotlar bazasi shakllantiriladi; -an’anaviy agrotexnik tadbirlar bilan taqqoslaganda, dron texnologiyalarining mehnat unumdorligi, vaqt tejamkorligi va iqtisodiy samaradorligi bo‘yicha ustunliklari aniq raqamlar bilan asoslanadi; -qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari uchun amaliy tavsiyalar va xulosalar ishlab chiqilib, ularni intensiv paxtachilik tizimiga joriy etish imkoniyati yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizim tashkilotlarda sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar natijalar Qishloq xo‘jaligi vazirligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.